

INSON RESURLARINI SAMARALI BOSHQARISHDA TA'LIM
INVESTITSIYASINING AHAMIYATI

Shaniyazova Dilafruz Sabirovna

*Qashqadaryo VPMM Pedagogika, psixologiya va ta'lim menejmenti kafedrası v/b
dotsenti*

“Shiddat bilan rivojlanib borayotgan davrning jamiyat oldiga qo'yayotgan talablari kun sayin ortib bormoqda. Strategik maqsadlarga erishish, yangi marralarni zabt etish, rivojlangan mamlakatlar qatoridan o'rin olish uchun mamlakatda bilimli, tajribali va zamonaviy fikrlaydigan yuksak saviyali kadrlar, mutaxassislarning o'rni beqiyos. Bu ehtiyoj osonlik bilan o'z-o'zidan qondirilmaydi. Buning zaminida inson kapitali, sodda qilib aytganda, inson, uning salohiyatini kashf etish, hamda uni ma'lum maqsadlarga erishish yo'lida safarbar qilish kabi ulug'vor vazifalar turadi”.

Sh.M.Mirziyoev

Uzluksiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar, ta'lim sifati va samaradorligini oshirish maqsadida ta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirishga yo'naltirilgan davlat dasturlari, hukumat qarorlari, ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilariga qaratilayotgan e'tibor, ular uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar, ta'lim sifati oshirishdagi mavjud muammolarning yechimini topish, ta'lim mazmunini takomillashtirish bilan bir qatorda, uning sifati ilmiy asosda boshqarishni ham taqozo etmoqda. Inson resurslarini boshqarishda esa uning aqlu zakovatini inobatga olish esa eng muhimidir.

Inson resurslarini boshqarish – bu ishga yollash, tanlov, xodimlarni jalb qilish, yo'naltirish, o'qitish va rivojlantirish, xodimlarni ishini baholash, rag'batlantirishni va imtiyozlarni berishni belgilash, xodimlarni motivatsiyalash, xodimlar farovonligi va kasaba uyushmasi bilan mehnat qonunchiligiga asosan munosabatlarni saqlab turish jarayonidir. Bunda ham rahbar, ham xodimdan yuksak aqliy salohiyat talab etiladi.

Shu bois, bugungi kunda jahonda ta'lim eng noyob kapital sifatida qadrlanayapti. Shu sababli ta'limning hamma bosqichlarida, ta'lim natijalarini baholash samaradorligini oshirish va usullarini takomillashtirish mexanizmlarini joriy etish orqali barcha insonlar uchun ularning hayoti davomida sifatli ta'lim olish imkoniyatini yaratishga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

Darhaqiqat, har qanday mamlakatning kuch – qudrati uning intellektual salohiyati bilan belgilanadi. Bu esa, bevosita ta'lim sifatiga bog'liq. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar, iqtisodiyotning innovatsion yo'nalishda shakllantirilishi, jahon iqtisodiyotiga integrallashuvi ta'lim tizimi oldiga dolzarb masalalaridan biri bo'lgan sifatli ta'limni amalga oshirishni va sifatli mutaxassislarni tayyorlash vazifasini qo'ymoqda.

Bugun yosh avlodga qanday bilim bersak, ertaga shuning natijasini ko'ramiz. Shu asnodda ta'lim-tarbiya jarayonida yosh avlod tarbiyasini innovatsion asosda tashkil etish, imkon qadar bu jarayonga yangilik kiritish, uning sifati oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ta'lim millat ko'zgusi bo'lib, jamiyat va davlatning yuksalib borishini

ta'minlovchi, xalqqa yaratuvchanlik, ijodkorlik xususiyatlarini baxshida etuvchi kategoriya bo'lib, tayyorlanayotgan mutaxassislarning yetuk kadr bo'lishida muhimdir. Uning natijasi – intellektual rivojlangan, keng mushohada qiluvchi, yangilik yaratishga intiluvchan shaxsni tarbiyalash uchun ta'limning o'zi yangiliklarga boy bo'lishi, uning mazmunida ijodkorlik ruhi va motivlari hukm surishi lozim. Bunda innovatsion faoliyat sub'ektlarining talablarini qondirishdan innovatsion faoliyat sub'ekti ehtiyojining majmuaviyligini anglash va shakllantirishgacha bo'lgan amaliy faoliyati jarayonida yuzaga keluvchi sub'ektlarning yangilikni yaratish va o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyoj va qiziqishlarini o'zida ifoda etuvchi, undovchi kuch bo'lmog'i lozim. Mazkur vazifani amalga oshirishda ta'lim muassasalari rahbarlaridan yuksak kasbiy salohiyat va insoniy sifatlarga ega bo'lish talab etiladi. Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoev o'zining “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz” nomli asarida har bir fuqaroning vatanparvar va yurtparvarlik fazilatlariga ega bo'lishi, ona yurtini chin qalbidan sevishi va ardoqlashi, el-yurti uchun o'zini ayamasi, bu yo'lda jonini ham fido qilishiga tayyor bo'lishi lozimligini uqtiradi. Shunday ekan, innovatsion faoliyat jarayonida rahbar o'zining keng dunyoqarashi, chuqur fikrlashi, uzoqni ko'ra bilish qobiliyati bilan boshqalardan ajralib turishi lozim. U tarbiyalayotgan yosh avlodda aynan shu sifatlarni - iymon-e'tiqodi mustahkam, irodasi baquvvat, or-nomusli, izlanuvchan, tashabbuskor, tadbirkor, tashkilotchi, talabchan va qat'iyatli shaxslarni shakllantirishi lozim.

Shuning uchun bugungi murakkab va sinovli davrda intellekt eng katta xazina ekanini anglab yetayotgan, farzandlarini ham shunga da'vat etayotgan ota-onalar ko'paymoqda. Bu, albatta barchamizni quvontirmoqda. Mazkur haqiqat eng ilg'or davlatlarda tan olingani, amalda o'z isbotini topib kelayotganiga esa ancha bo'ldi.

Masalan, AQShliklarning aytishicha, hech bir investitsiya bolaning bilimli bo'lishi uchun sarflangan sarmoyachalik foyda keltirmaydi. “Agar neft va oltin qazish sohasiga bir dollar investitsiya kiritsangiz, to'rt-besh baravar, bozordan narsa olib sotsangiz yigirma-o'ttiz foizdan bir baravargacha foyda keltirishi mumkin. SHu mablag'ni farzandingizni o'qitish uchun yo'naltirsangiz, ming dollar bo'lib qaytadi”, deyishadi. Bugungi kunda G'arb davlatlarida innovatsiyalar, ilm-fan, ta'lim taraqqiyoti va imkoniyatlari qanday ekanidan esa o'zingiz yaxshi xabardorsiz.

Mutaxassislarning fikricha, ta'limga kiritilgan investitsiya birdaniga samara bermaydi. Kamida 5-10 yil kutish lozim. Ta'lim — nafaqat mamlakatimizni yangilash, ravnaq toptirish, balki ijtimoiy adolat va barqarorlikni ta'minlashda katta rol o'ynaydi. Bu esa, o'z navbatida, kambag'allikka qarshi kurashish bilan ham bog'liq. Zero, AQShlik iqtisodchi Jeffri Saksning ta'kidlashicha, jamiyatning kambag'allik changalidan qutulishiga imkon beradigan oltita omil mavjud. Ular: inson kapitali, ishbilarmonlik kapitali, infratuzilma, tabiiy kapital, ijtimoiy o'rnatilgan kapital va bilimlar kapitalidir. Ushbu mezonlarga erishishda esa, birinchi navbatda, ta'lim saviyasi va sifati, u bilan aholini qamrab olish darajasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Hattoki, davlatimiz rahbari xalq bilan olib borayotgan har bir muloqotlarida, videoselektor yig'ilishlarida, parlamentga yo'llayotgan Murojaatnomalarida, xalqaro minbarlardagi nutqlarida aynan ma'rifat aholi turmushini farovonlashtirish, odamlarning orzu-maqсадlarini ro'yobga chiqarishning asosiy mezoni ekaniga urg'u beryaptilar. Ushbu mazmunda qabul qilinayotgan farmon va qarorlar esa ta'limni rivojlantirish yo'lida

dasturulamal bo'lmoqda. Buning isboti sifatida esa, uzluksiz ta'limning barcha turlarida o'quvchi-yoshlarning har tomonlama chuqur bilimga ega bo'lishlari va o'z aqliy qobiliyatlari bilan hattoki dunyoni zabt etishlari uchun barcha shart-sharoitlar hamda imkoniyatlar yaratilmoqda.

Ushbu maqsadlar, albatta, o'z-o'zidan amalga oshmaydi. Buning uchun, avvalo, barcha bir yoqadan bosh chiqarib, islohotlar mazmun-mohiyatini chuqur anglash bilan bir qatorda, ular ijrosiga ham mas'uliyatli bo'lishi lozim. Zero, yoshlarning kelajagi haqida qayg'urish nafaqat davlat yoki hukumatning, balki har birimizning asosiy burchimizdir.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, shunday xulosa kelish mumkin, jamiyatda bilimga asoslangan o'zaro ahillik va hamjihatlik kayfiyati Uchinchi Renessans eshiklarini ochib beradi. Zotan, Sharq donishmandlari aytganidek, "Eng katta boylik — bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros — bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik — bu bilimsizlikdir!" Shunday ekan, mamlakatimizda ilm-fanni yanada ravnaq toptirish, yoshlarimizni chuqur bilim, yuksak ma'naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish borasida boshlagan ishlar hamisha bardavomdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz – T.: "O'zbekiston", 2017 y.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 12-dekabr "O'zbekiston Respublikasining 2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini tasdiqlash hamda investitsiya loyihalarini boshqarishning yangi yondashuv va mexanizmlarini joriy etish to'g'risida"gi PQ-72-sonli qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-dekabr "2023 – 2025 yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-459-sonli qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-fevraldagi ijtimoiy sohalardagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan o'tkazilgan videoselektor.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 14-fevral "O'zbekiston Respublikasining 2024 yil I choragiga mo'ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 92-sonli qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 16-may "O'zbekiston Respublikasining 2024 yil II choragiga mo'ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 286-sonli qarori.
7. <https://lex.uz>